



<https://orcid.org/0009-0004-7224-0328>
e-mail:
l.gayratovich@gmail.uz

BO'LAJAK TARIX FANI O'QITUVCHILARIDA MEDIASAVODXONLIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Muxammadiyev Lochin G'ayratovich, Chirchiq davlat pedagogika universiteti tadqiqotchisi

PEDAGOGICAL BASIS OF DEVELOPING MEDIA LITERACY SKILLS IN FUTURE HISTORY TEACHERS

Mukhammadiev Lochin Gayratovich, Chirchik State Pedagogical University Independent Researcher

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ НАВЫКОВ МЕДИАГРАМОТНОСТИ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИСТОРИИ

Мухаммадиев Лочин Гайратович, независимый исследователь Чирчикского государственного педагогического университета

Annotatsiya: Maqolada bo'lajak tarix fani o'qituvchilarida mediasavodxonlik ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishning pedagogik asoslari yoritilgan. Mediasavodxonlik tushunchasining mazmun-mohiyati, uning tarixiy ta'limda tutgan o'rni, tarixiy manbalarni tanqidiy tahlil qilish, tarixiy axborotni faktologik asosda baholash ko'nikmalarining shakllanishiga doir masalalar tahlil etilgan. Muallif bo'lajak tarixchilarini tayyorlashda raqamli texnologiyalar, zamonaviy ommaviy axborot vositalari bilan ishslash, feyk (soxta) axborotni aniqlash va axborot madaniyatini shakllantirishga qaratilgan yondashuvlarni pedagogik jarayon bilan bog'laydi.

Kalit so'zlar: mediasavodxonlik, tarixiy tafakkur, axborot madaniyati, tarixiy manbalar, tanqidiy fikrlash, o'qituvchi tayyorgarligi.

Abstract: The article explores the pedagogical foundations of developing media literacy among future history teachers. It highlights the importance of integrating critical media analysis, source evaluation, and digital competencies into teacher training. Special emphasis is placed on historical thinking, working with historical sources, identifying misinformation, and fostering a responsible information culture through innovative teaching methods and digital tools.

Keywords: media literacy, historical thinking, information culture, source criticism, teacher preparation.

Аннотация: В статье раскрываются педагогические основы формирования медиаграмотности у будущих учителей истории. Рассматривается содержание понятия "медиаграмотность" и его значение в процессе подготовки педагогов, анализируется роль исторического источника в контексте медиакомпетентности, акцент сделан на развитие навыков критического мышления и оценки информации с точки зрения ее достоверности. Автор предлагает интегративный подход к преподаванию, основанный на использовании цифровых технологий и современных медиаресурсов.

Ключевые слова: медиаграмотность, историческое мышление, информационная культура, критическое мышление, подготовка учителей.

KIRISH. Zamonaviy axborot jamiyatida tarix fani o'qituvchilarining axborot manbalarini tahlil qilish, ular orasida haqqoniy va noto'g'ri ma'lumotlarni farqlay olish ko'nikmalariga ega bo'lishi dolzarb masalaga aylandi. Ayniqsa, tarixiy voqealarni yoritishda manipulyativ usullar ko'payayotgan bir paytda, bo'lajak o'qituvchilarining mediasavodxonligini shakllantirish ta'limning ustuvor yo'nalishiga aylanishi zarur. Shu bois, bu maqolada bo'lajak tarix fani o'qituvchilarida mediasavodxonlik ko'nikmalarini pedagogik nuqtayi nazardan rivojlantirish masalasi atroficha tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD.

Mediasavodxonlik tushunchasi zamonaviy ta'lim paradigmaсида keng ko'lamlı kommunikativ, axboriy va madaniy kompetensiyalar tizimini anglatadi. UNESCO ta'rifiga ko'ra, mediasavodxonlik bu insonning media va axborot vositalari bilan ongli, tanqidiy va samarali munosabatda bo'lish qobiliyatidir[3]. Bu tushuncha informatsion va raqamli savodxonlik, tanqidiy fikrlash, axborot manbalarini tahlil qilish, baholash va ulardan mas'uliyatli foydalanishni qamrab oladi.

Tarixiy ta'lim kontekstida mediasavodxonlik ayniqsa dolzarb ahamiyat kasb etadi, chunki tarix — bu doimiy tahlil, baholash va turlicha talqinlar orqali o'rjaniladigan fan. Tarixiy ma'lumotlar, ayniqsa ularning ommaviy axborot vositalaridagi talqinlari, ko'pincha siyosiy, mafkuraviy va madaniy kontekstga bog'liq bo'lgan holda keltiriladi. Shuning uchun tarix fani o'qituvchisi tarixiy manbalarni tahlil qilish, fakt va fikrni ajrata olish, turli axborot oqimlarida kontekstual yondashuvni tanlay olish salohiyatiga ega bo'lishi zarur[2].

Bo'lajak tarix fani o'qituvchilarini tarixiy voqealarni media vositalari orqali qanday talqin qilinishini chuqur tushunishlari, ayniqsa feyk (soxta) tarixiy axborotlarni aniqlay olishlari lozim. Bu borada tanqidiy fikrlash va axborotni verifikatsiyalash ko'nikmalarini shakllantirish alohida ahamiyatga ega. Masalan, ko'plab tarixiy mavzular ommaviy axborot vositalarida bирyoqlama yoritilishi mumkin, bu esa o'quvchilarda noto'g'ri tarixiy tasavvurlar shakllanishiga olib keladi. Tarix o'qituvchisi bunday holatlarda nafaqat o'zi xolis pozitsiyani egallashi, balki o'quvchilarini ham ko'p manbali tahlilga jalb qilishi kerak [5].

MUHOKAMA.

Mediasavodxonlikning tarixiy ta'limdagi ahamiyati shundan iboratki, u o'quvchilarini faqat faktlarni yodlashga emas, balki ularni anglash, baholash va mustaqil xulosa chiqarishga o'rgatadi. Shu sababli mediasavodxonlik va tarixiy tafakkur o'rtasida kuchli metodik bog'liqlik mavjud. Tarixiy tafakkur sabab-natiya tahliliiga, vaqt doirasidagi izchillikka va kontekstual yondashuvga asoslangan bo'lsa, mediasavodxonlik bu tafakkurni raqamli axborot muhitida qo'llash imkonini beradi [6].

Shuningdek, tarixiy ta'limda mediasavodxonlikni rivojlantirish uchun interaktiv materiallar — virtual muzeylar, raqamli arxivlar, tarixiy podkastlar va hujjatli filmlar o'quvchilarining qiziqishini oshirishda va mustaqil o'rganish faoliyatini rag'batlanirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida yangi turdagи muloqotni vujudga keltiradi[1]. Natijada, mediasavodxonlik tarixiy ta'limda ikki yo'nalishda ahamiyatlidir: birinchidan, u o'qituvchining o'z kasbiy kompetensiyasini boyitadi; ikkinchidan, o'quvchilarining tanqidiy-tarixiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu sababli, bo'lajak tarix o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida mediasavodxonlikni pedagogik dasturlarga integratsiya qilish muhim strategik yo'nalish hisoblanadi.

NATIJALAR.

Zamonaviy ta'limda tanqidiy fikrlash — bu axborotni tahlil qilish, mantiqiy xulosalar chiqarish, mavjud dalillarning ishonchlilagini baholash va muqobil pozitsiyalarni ko'rib chiqishga asoslangan ongli faoliyat turi hisoblanadi. Tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini ayniqsa tarixiy ta'limda beqiyos ahamiyatga ega, chunki tarix — bu ko'p manbali, ko'p talqinli fan bo'lib, unda voqealarni faqat faktlar asosida emas, balki kontekstual va tafsiriy yondashuv asosida anglash zarur.

Mediasavodxonlik esa tanqidiy fikrlashni amaliyotga tatbiq etishda eng muhim vositadir. Media muhitida tarixiy axborotlar ko'pincha kontekstdan uzilgan, siyosiy yoki mafkuraviy niyatlar bilan shakllantirilgan bo'ladi. Bo'lajak tarix o'qituvchisi bunday holatlarda axborotni tanqidiy tahlil qilish, tarixiy haqiqatni aniqlash uchun manbalarni solishtirish, ularning ishonchlilagini aniqlash ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim[2].

Tarixiy tafakkur esa — bu tarixiy voqealarni sabab-natija bog‘liqligi, zamon va makon konteksti, tarixiy shaxslar va ularning qarorlarini tushunish orqali anglash jarayonidir. Bu tafakkur mediasavodxonlik orqali yanada chuqurlashadi, chunki raqamli makonda o‘quvchi turli media mahsulotlar bilan mustaqil ishlashga, ularni solishtirishga va baholashga o‘rganadi[6].

Masalan, tarixiy bir voqeaga oid gazetadagi maqola, hujjatli film, blog posti yoki YouTube sharhini tahlil qilish orqali o‘quvchi faqat tarixiy faktlarni o‘rganmaydi, balki ularning qanday talqin qilinayotganini tushunishga harakat qiladi. Bu jarayonda o‘qituvchi o‘quvchini muqobil fikrlar, dalillarning manbalari, manbaning paydo bo‘lgan davri, mualliflik pozitsiyasi haqida savollar bilan tanishtirishi lozim. Shu orqali tanqidiy fikrlashga asoslangan tarixiy tafakkur shakllanadi[5]. Facione tomonidan ishlab chiqilgan tanqidiy fikrlash komponentlari (muloqotga tayyorlik, dalilni tahlil qilish, baholash, qaror qabul qilish, mulohaza yuritish) tarixiy ta’limda to‘liq tatbiq qilinishi mumkin. Ayniqsa, tarixiy saboqlarda bir voqeani turli davrlarda turlicha talqin etilganini o‘rganish tanqidiy tafakkurni faollashtiradi. O‘zbekiston tarix ta’limi bo‘yicha tadqiqot olib borgan olimlar ham tarixiy tafakkur va tanqidiy fikrlashni uyg‘un holda rivojlantirish zarurligini qayd etgan. Jumladan, F.Eshonqulovning ta’kidlashicha, tarixiy faktlar asosida fikrlovchi shaxs yetishtirish uchun o‘qituvchi nafaqat tarixiy bilim, balki tahliliy va baholovchi metodologiyaga ham ega bo‘lishi kerak[9].

Tarixiy tafakkur va mediasavodxonlik integratsiyasi o‘quvchiga o‘tmishga nisbatan xolis, dalillarga asoslangan va tanqidiy yondashuvda qarash imkonini beradi. Bu esa yosh avlodda nafaqat bilim, balki fuqarolik pozitsiyasi, tarixga nisbatan mas’uliyatli munosabat shakllanishiga xizmat qiladi. Mediasavodxonlikni o‘qituvchilarda rivojlantirish, ayniqsa, tarix fani bo‘yicha mutaxassis tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari uchun strategik-pedagogik vazifalardan biridir. Chunki bu yo‘nalish o‘qituvchidan axborotni izlash, tanlash, tahlil qilish va talabalarga uni puxta tushuntira olish kompetensiyasini talab etadi. Mediasavodxonlik faqat raqamli texnologiyalardan foydalanish bilan

emas, balki axborot madaniyatini shakllantirish, manipulyativ xabarlarni farqlash, feyk yangiliklarni aniqlash va tarixiy kontekstda baholash kabi murakkab ko‘nikmalar bilan uzviy bog‘liq[4].

XULOSA. Pedagogik jihatdan qaralganda, mediasavodxonlikni shakllantirishda konstruktivistik yondashuv muhim ahamiyatga ega. Bu yondashuvga ko‘ra, o‘quvchi o‘z bilimi va tajribasini mustaqil tarzda quradi, o‘qituvchi esa bilim egallahar jarayonini yo‘naltiruvchi rolini bajaradi. Tarixiy matnlar va ommaviy axborot vositalaridagi tarixiy kontentni birgalikda tahlil qilish, turli pozitsiyalardagi tarixiy materiallar bilan ishlash orqali tanqidiy tafakkur va mediasavodxonlik rivojlanadi[8].

Amaliy jihatdan olib qaralganda, mediasavodxonlikni shakllantirish uchun interfaol pedagogik texnologiyalar, loyiha asosida o‘qitish (project-based learning), tadqiqotga asoslangan yondashuv (inquiry-based learning) va media-analitik mashg‘ulotlar qo‘llanilishi lozim. Jumladan, tarixiy mavzuga doir maqolalarni tahlil qilish, tarixiy voqealarni aks ettiruvchi video yoki podkastlarni ko‘rib chiqish, ularning muallifi, yaratilgan vaqt va konteksti asosida baholash bo‘lajak o‘qituvchilarning nafaqat bilimini, balki axborotga tanqidiy munosabatini ham shakllantiradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Косимов Ш.К. Таълим жараёнида ахборот-коммуникация технологиялари. –Тошкент: Ўқитувчи, 2020. – 192 б.
2. Раҳимов Ф.Ш. Тарих таълимида инновацион ёндашувлар. –Самарқанд: СамДУ нашриёти, 2019. – 156 б.
3. UNESCO. Media and Information Literacy Curriculum for Teachers.F.Paris:UNESCO, 2011.-190 p.
4. Potter W.J. Media Literacy. –Thousand Oaks: SAGE Publications, 2013. – 384 р.
5. Турдиев А.Н. Тарихий манбаларни тахлил килиш методологияси.-Тошкент: Фан,2017.- 208 б.
6. Назаров Қ.К. Таълимда рақамли саводхонликни шакллантириш. // Педагогика журнали. – 2022. – №2. – Б. 56–61.